



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
VI-QISM**



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
VI-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

ISLOMIY BANK FAOLIYATI TO'G'RISIDAGI QONUNNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH: O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNING KONTSEPTUAL, METODOLOGIK VA INSTITUTIONAL ASOSLARI	12
Abdullayev Azamat Akbar o'g'li	



ISLOMIY BANK FAOLIYATI TO'G'RISIDAGI QONUNNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH: O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNING KONTSEPTUAL, METODOLOGIK VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI



Abdullayev Azamat Akbar o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (TSUE)
“Iqtisodiyot va menejment” kafedrası mustaqil izlanuvchisi
E-mail: aa.abdullayev01@gmail.com

Annotatsiya. 2026-yilda qabul qilingan islomiy bank faoliyati to'g'risidagi qonun O'zbekistonda shariatga muvofiq moliya uchun huquqiy poydevor yaratdi. Biroq xalqaro tajriba qonunning o'zi bozor yaratmasligini ko'rsatadi. Maqolada qonunni amaliyotga tatbiq etishning konseptual, metodologik va institutsional asoslari tahlil qilinadi. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan “Islomiy moliyalashtirish inklyuzivligi” tushunchasi, uni o'lchovchi maxsus indeks, uch bosqichli joriy etish modeli hamda kadrlar salohiyati va bank darajasidagi tayyorlik masalalari raqamli transformatsiya va mintaqaviy raqobat sharoitida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: islomiy moliya, moliyaviy inklyuzivlik, islomiy bank faoliyati to'g'risidagi qonun, dual banking, islomiy oyna, IMII indeksi, sukuk, raqamli moliya, kadrlar salohiyati.

Abstract. The law on Islamic banking activity adopted in 2026 created a legal foundation for Sharia-compliant finance in Uzbekistan. International experience, however, shows that a law alone does not create a market. The article analyses the conceptual, methodological and institutional foundations for operationalising the law. The author's concept of Islamic financing inclusiveness, a dedicated index for measuring it (IMII), a three-stage implementation model, and the questions of human capacity and bank-level readiness are examined in the context of digital transformation and regional competition.

Keywords: Islamic finance, financial inclusion, law on Islamic banking activity, dual banking, Islamic window, IMII index, sukuk, digital finance, human capacity.

Аннотация. Принятый в 2026 году закон об исламской банковской деятельности создал правовую основу для финансов, соответствующих шариату, в Узбекистане. Однако международный опыт показывает, что сам по себе закон не формирует рынок. В статье анализируются концептуальные, методологические и институциональные основы практической реализации закона. Разработанное автором понятие «инклюзивности исламского финансирования», специальный индекс для её измерения (IMII), трёхэтапная модель внедрения, а также вопросы кадрового потенциала и готовности на уровне банка рассматриваются в условиях цифровой трансформации и региональной конкуренции.

Ключевые слова: исламские финансы, финансовая инклюзивность, закон об исламской банковской деятельности, двойная банковская система, исламское окно, индекс IMII, сукук, цифровые финансы, кадровый потенциал.



KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan huquqiy va institutsional islohotlar mamlakat moliya tizimi rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi. Ushbu jarayon shariat tamoyillariga muvofiq moliyaviy xizmatlarni yo'lga qo'yish, islomiy banklar va an'anaviy banklar tarkibida islomiy oynalarni tashkil etish hamda moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish uchun zarur huquqiy asoslarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Moliyaviy inklyuzivlik bugungi kunda nafaqat ilmiy tushuncha, balki global siyosat maqsadi darajasiga ko'tarilgan¹. Biroq O'zbekiston uchun asosiy muammo xizmatlarning mavjudligida emas, balki ulardan foydalanishda va eng muhimi, aholining diniy e'tiqod sababli rasmiy moliyadan ixtiyoriy chetlanishidir². Aynan shu ixtiyoriy chetlanish umumiy bank xizmatlarini kengaytirish bilan hal etilmaydi, chunki muammoning ildizi qulaylik yoki narxda emas, balki mahsulotning e'tiqodga muvofiqligidir.

Shu sababli qonunning qabul qilinishi zarur, ammo o'z-o'zidan yetarli shart emas. Bunga eng yangi misol Rossiya tajribasi bo'lib, u yerda sheriklik moliyalashtirish bo'yicha eksperiment 2023-yilda boshlanib, dastlabki ikki yilda taxminan to'rt milliard rubl atrofida mablag' jalb etilgani bois muddati 2028-yilgacha uzaytirildi³. Demak, asosiy savol qonun qabul qilindimi degan emas, balki uni qanday qilib amaliyotga samarali tatbiq etish mumkinligidir.

Ushbu maqolada qonunni amaliyotga tatbiq etishning uch o'zaro bog'liq asosi tahlil qilinadi. Konseptual asos nimaga erishilishini, metodologik asos buni qanday o'lchashni, institutsional asos esa uni qanday joriy etishni belgilaydi. Ushbu asoslar muallif tomonidan ishlab chiqilgan tushuncha, o'lchov indeksi va joriy etish modeli orqali ochib beriladi hamda raqamli transformatsiya va kuchayib borayotgan mintaqaviy raqobat kontekstida ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

1. Konseptual asos: islomiy moliyalashtirish inklyuzivligi

Moliyaviy inklyuzivlikni tushunishda ilmiy adabiyot uch o'lchamni ajratadi. Bular kirish (access), foydalanish (usage) va sifat (quality). Beck, Demirgüç-Kunt va Martínez Pería ko'rsatishicha, kirish foydalanishni kafolatlamaydi⁴. Ya'ni bank filiali yaqin bo'lishi mumkin, biroq aholi undan foydalanmasligi mumkin. Bu farq O'zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega, chunki bu yerda umumiy inklyuzivlik ko'rsatkichi 60 foiz atrofida bo'lsa-da, aholining sezilarli qismi rasmiy kreditdan foydalanmaydi.

Shu nuqtai nazardan islomiy moliyalashtirish inklyuzivligi (Islamic financing inclusion) tushunchasi mustaqil ilmiy atama sifatida taklif etiladi. Ushbu tushuncha islom tamoyillariga muvofiq moliya xizmatlariga kirishni, ulardan faol foydalanishni va diniy sabab bilan ixtiyoriy chetlangan aholi qatlamini rasmiy moliya tizimiga jalb etishni yagona doirada birlashtiradi. Uning umumiy moliyaviy inklyuzivlikdan tub farqi shundaki, u butun bank tizimini emas, balki aynan islomiy moliya segmentining inklyuzivligini alohida o'lchaydi. O'zbekiston misolida umumiy inklyuzivlik 60 foizni tashkil etgani holda, islomiy moliyalashtirish inklyuzivligi deyarli nolga teng ekanligi aniqlangan. Aynan shu tafovut qonunosti hujjatlari bilan bartaraf etilishi lozim bo'lgan asosiy bo'shliqni ko'rsatadi.

Bu konseptual aniqlik qonunni amaliyotga tatbiq etish uchun zarur, zero u muvaffaqiyat mezonini belgilaydi. Qonunning maqsadi shunchaki yangi mahsulotlar qo'shish emas, balki ilgari e'tiqod sababli chetda qolgan aholi va tadbirkorlarni rasmiy moliyaga jalb etishdir. Davlatlararo ma'lumotlar asosida Imam va Kpodar islomiy bankchilik mavjud mamlakatlarda moliyaviy inklyuzivlik darajasi yuqoriroq ekanini tasdiqlagan⁵, Mohieldin va boshqalar esa risk-ulashuv modeli orqali past daromadli qatlamlarga xizmat ko'rsatish imkoniyatini alohida ta'kidlaydi⁶. Shu bois islomiy moliyalashtirish inklyuzivligi nafaqat diniy, balki iqtisodiy va ijtimoiy adolat masalasi hamdir.

O'zbekistonda bunday talab empirik jihatdan tasdiqlangan. BMT Taraqqiyot Dasturi o'tkazgan so'rovga ko'ra, jismoniy shaxslarning 56 foizi va tadbirkorlarning 38 foizi an'anaviy bank kreditidan diniy sabablarga ko'ra voz kechgan, 75 foiz aholi va 61 foiz biznes esa islomiy xizmatlar taklif etilsa, ulardan foydalanishga tayyorligini bildirgan⁷. Asadov va boshqalarning sukukka talabni o'rgangan tadqiqoti ham kapital bozori mahsulotlariga

1 Demirgüç-Kunt A., Klapper L., Singer D., Ansar S. The Global Findex Database 2021. Washington: World Bank, 2022.

2 Naceur S.B., Barajas A., Massara A. Can Islamic Banking Increase Financial Inclusion? // IMF Working Paper. 2015. № 15/31.

3 Experiment on implementing Islamic banking to be extended for three years (18.05.2025) // URL: <https://realnoevremya.com>.

4 Beck T., Demirgüç-Kunt A., Martínez Pería M.S. Reaching out: Access to and use of banking services across countries // Journal of Financial Economics. 2007. Vol. 85. № 1. C. 234–266.

5 Imam P., Kpodar K. Islamic banking: Good for growth? // Economic Modelling. 2016. Vol. 59. C. 387–401.

6 Mohieldin M., Iqbal Z., Rostom A., Fu X. The role of Islamic finance in enhancing financial inclusion in OIC countries // Islamic Economic Studies. 2012. Vol. 20. № 2. C. 55–120.

7 Imamnazarov J. Islamic Finance Landscaping Analysis for Uzbekistan. Tashkent: UNDP, 2020.



sezilarli talab borligini, biroq xabardorlik darajasi pastligini aniqlagan⁸. Demak, qonun ro'yobga chiqarishi lozim bo'lgan salohiyat mavjud, masala esa uni amaliyotga aylantirishdadir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

2. Metodologik asos: islomiy moliyaviy inklyuzivlik indeksi (IMII)

Qonunni amaliyotga tatbiq etishning ikkinchi sharti uning natijasini o'lchash imkoniyatidir. Boshqarib bo'lmaydigan narsani o'lchab ham bo'lmaydi. Agar islomiy moliyalashtirish inklyuzivligi miqdoriy ifodalanmasa, qonunning ta'siri va islohotlar yo'nalishi noaniq qoladi. Umumiy moliyaviy inklyuzivlikni o'lchashda Sarma ko'p o'lchovli indeks metodologiyasini ishlab chiqqan⁹, Amidžić, Massara va Mialou esa unga sifat o'lchamini qo'shgan¹⁰. Biroq bu indekslar butun bank tizimini qamrab oladi va islomiy segmentni alohida ajrata olmaydi.

Ushbu bo'shliqni to'ldirish uchun islomiy moliyaviy inklyuzivlik indeksi (Islamic Financial Inclusion Index, IMII) ishlab chiqildi. Indeks Sarma metodologiyasiga asoslanadi, biroq undan tub farq qiladi. U faqat islomiy moliya segmentining inklyuzivligini o'lchaydi. IMII esa uch o'lchamdan iborat bo'lib, har biri nol bilan bir oralig'ida normallashtiriladi va vaznli o'rtacha sifatida birlashtiriladi.

$$IMII = 0,25 \times Access + 0,35 \times Usage + 0,40 \times Quality.$$

Sifat o'lchamiga eng yuqori vazn (0,40) berilgan, chunki mahsulot xilma-xilligi, shariat boshqaruvi va iste'molchi himoyasi inklyuzivlikning eng muhim, ayni paytda eng nozik qismidir. Foydalanishga o'rtacha (0,35), kirishga esa (0,25) vazn beriladi, zero xizmatlarning mavjudligi o'z-o'zidan inklyuzivlikni kafolatlamaydi.

Indeksning O'zbekiston uchun hozirgi qiymati 0,028 ni tashkil etadi, bu islomiy moliyalashtirish inklyuzivligi amalda nolga yaqin ekanini raqamlar bilan tasdiqlaydi. Qiyoslash uchun, Turkiya (taxminan 0,25) va Malayziya (taxminan 0,65) kabi yetuk dual tizimlarda bu ko'rsatkich sezilarli darajada yuqori.

Qonun va u bilan bog'liq islohotlar to'liq amalga oshirilsa, 2030-yilga borib indeks 0,15 dan 0,20 gacha o'sishi maqsad qilingan. IMIIning amaliy ahamiyati shundaki, u qonunning ta'sirini yildan-yilga kuzatish va islohotlarning qaysi o'lchamda, ya'ni kirish, foydalanish yoki sifat bo'yicha sustligini aniqlash imkonini beruvchi milliy monitoring vositasiga aylanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

3. Institutsional-amaliy asos: uch bosqichli joriy etish modeli

Qonunda ikki yo'l belgilab berilgan. Ya'ni, maxsus islomiy bank tashkil etish va an'anaviy bankda islomiy oyna ochish. Biroq amaliyot uchun asosiy savol qaysi yo'l tanlanishi emas, balki o'tishning qanday bosqichma-bosqich amalga oshirilishidir. Shu maqsadda O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan uch bosqichli joriy etish modeli (2026–2030) ishlab chiqildi.

Birinchi bosqich huquqiy va tartibga soluvchi tayyorgarlikni qamrab oladi. Qonunosti normativ hujjatlar, litsenziyalash tartibi va shariy boshqaruv talablarini ishlab chiqish. Ikkinchi bosqich islom darchasi orqali pilot joriy etishni va yangi mahsulotlarni xavfsiz sinash uchun sinov maydonchasi (Regulatory Sandbox) mexanizmini nazarda tutadi, bunda cheklangan mijozlar doirasida, kuchaytirilgan nazorat va kuchli iste'molchi himoyasi sharoitida tajriba o'tkaziladi. Uchinchi bosqich bozorni kengaytirish, mustaqil islomiy banklarni shakllantirish va shariatga mos likvidlik vositalarini joriy etishni o'z ichiga oladi. Model teng raqobat sharoitini (level playing field) ta'minlash hamda beshta asosiy risk turini, ya'ni shariy muvofiqlik, huquqiy, operatsion, bozor va likvidlik risklarini boshqarishga alohida e'tibor qaratadi.

Ushbu bosqichli yondashuvning maqsadga muvofiqligini mintaqaviy tajriba tasdiqlaydi. Qozog'istonda 2025-yil dekabrda qabul qilingan yangi bank qonuni birinchi marta an'anaviy banklarga islom darchasi ochish imkonini berdi, AIFC doirasida esa shariy boshqaruv qoidalari hamda sukuk infratuzilmasi rivojlantirilmoqda¹¹. Ozarbayjonda ikkita an'anaviy bank 2026-yilning birinchi yarmida aynan sinov maydonchasi doirasida islomiy mahsulotlarni sinashni boshladi, biroq Fitch reyting agentligining bahosiga ko'ra, mintaqada islomiy banklar ulushi 2026-yil oxiriga 1,5 foizdan past qolishi kutilmoqda¹². Bu raqam normativ-huquqiy hujjatlar va sinov maydonchasining o'zi yetarli emasligini, izchil siyosat, teng soliq rejimi va aholi xabardorligi zarurligini ko'rsatadi.

8 Asadov A., Yildirim R., Saiti B. Empirical Analysis of Demand for Sukuk in Uzbekistan // *Economies* (MDPI). 2024. Vol. 12. № 8.

9 Sarma M. Index of Financial Inclusion: A Measure of Financial Sector Inclusiveness // *Money, Finance, Trade and Development Working Paper*. 2012. № 07/2012.

10 Amidžić G., Massara A., Mialou A. Assessing Countries' Financial Inclusion Standing: A New Composite Index // *IMF Working Paper*. 2014. № 14/36.

11 Kazakhstan: New Banking Law Signals Major Reform (12.2025) // URL: <https://www.bakermckenzie.com>.

12 Central Asia Islamic Finance Potential Catalysed by Reforms / Fitch Ratings (12.05.2026) // URL: <https://www.newscentralasia.net>.



4. Inson kapitali va bank darajasidagi tayyorlik

Konseptual aniqlik, o'lov vositasi va joriy etish modeli inson kapitali va bank darajasidagi tayyorliksiz kutilgan amaliy natijani bermasligi mumkin. Shu sababli qonunni amaliyotga tatbiq etishning to'rtinchi asosi kadrlar salohiyati va institutsional tayyorgarlik hisoblanadi.

Muallifning baholashicha, taklif etilgan model to'liq amalga oshirilsa, 2030-yilga borib O'zbekistonda islomiy moliya sohasida to'rt darajada mingdan ortiq malakali mutaxassis zarur bo'ladi. Bu ehtiyoj uchun institutsional poydevor allaqachon yaratila boshlandi. Oliy ta'lim klassifikatoriga "Islomiy moliya" va "Islom iqtisodiyoti va moliyasi" ta'lim yo'nalishlari rasmiy kiritildi¹³. Bu esa universitetlarda tegishli o'quv dasturlarini ishlab chiqish va malakali kadrlar tayyorlash imkonini beradi.

Joriy etishning bank darajasidagi ko'rinishini O'zbekistonning islomiy moliya bo'yicha eng tajribali banki Trastbank XAB misolida ko'rsatish mumkin. Ushbu bank uchun to'rtta aniq takomillashtirish taklifi ishlab chiqildi. Bular mahsulotlar turini bittadan oltitagacha kengaytirish, alohida sho'ba korxona o'rniga rasmiy islomiy oyna tashkil etish, mobil ilovaga islomiy moliyalashtirish modulini integratsiya qilish va kamida ellik nafar xodimni xalqaro standartlar (AAOIFI) bo'yicha sertifikatlash. Bu takliflar makro darajadagi qonunni mikro darajadagi aniq amaliy harakatlarga aylantirishning namunasidir va namuna sifatida boshqa banklar uchun yo'l xaritasi bo'la oladi.

5. Yangi sharoit: raqamli transformatsiya va mintaqaviy raqobat

O'zbekiston qonunni amaliyotga tatbiq etayotgan davr global islomiy moliya tarixidagi alohida bosqichdir. ICD va LSEG hisobotiga ko'ra, jahon islomiy moliya aktivlari 2024-yilda taxminan 6 trillion AQSH dollarga yetdi va 2029-yilga 9,7 trillion AQSH dollar prognoz qilinmoqda¹⁴. Eng tez o'zgarayotgan segment esa raqamli moliyadir. Islomiy fintech bozori 2025-yilda 223 milliard dollar atrofida bo'lib, 2033-yilga 619 milliard dollarga o'sishi kutilmoqda¹⁵.

Bu segmentda yangi tendensiyalar, ya'ni sun'iy intellekt, real aktivlarni tokenizatsiya qilish, smart-kontraktlar asosidagi sukuk va raqamli to'lov vositalari orqali hisob-kitob yetakchi o'rinni egallamoqda. O'zbekiston uchun bu "leapfrog", ya'ni oraliq bosqichlarni chetlab o'tish imkoniyatini ochadi. Yosh va texnologiyaga moyil aholi sharoitida islomiy moliyani dastlabki kundanoq raqamli asosda qurish mumkin. Aynan shu bois bank darajasidagi takomillashtirishda mobil ilovaga islomiy modul integratsiyasi strategik qadam bo'ladi.

Shu bilan birga, raqamli muhit yangi nazorat muammosini keltirib chiqaradi. IFSB ta'kidlashicha, smart-kontrakt, tokenizatsiya va algoritmlarga asoslangan kredit baholash uchun maxsus shariy standartlar hali shakllanmagan¹⁶. Demak, O'zbekiston raqamli islomiy moliyani rivojlantirar ekan, shariat boshqaruvini ham raqamli operatsiyalarga moslashtirishi lozim, aks holda sifat o'lchami sustligicha qoladi.

Nihoyat, qonunni amaliyotga tatbiq etish kuchayib borayotgan mintaqaviy raqobat sharoitida kechmoqda. Qozog'iston, Ozarbayjon va Rossiya bir vaqtning o'zida islomiy moliyani rivojlantirib, Fors ko'rfazi mamlakatlari kapitalini jalb etish bo'yicha mintaqaviy moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirishga intilmoqda. O'zbekiston bu raqobatda o'z vositasini yaratdi. 2026-yil mart oyida prezident farmoni bilan Toshkent xalqaro moliya markazi (TIFC) maxsus huquqiy maqom bilan tashkil etilib, islomiy va "yashil" moliya xizmatlari uchun uzoq muddatli soliq imtiyozlari belgilandi¹⁷. Shunday qilib, qonunni samarali tatbiq etish nafaqat ichki inklyuzivlik, balki mamlakatning xalqaro moliyaviy jozibadorligini oshirish bilan ham bog'liqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada islomiy bank faoliyati to'g'risidagi 2026-yilgi qonunni amaliyotga tatbiq etishning konseptual, metodologik va institutsional asoslari tahlil qilindi. Asosiy xulosalar quyidagilardan iborat.

Birinchidan, qonunning qabul qilinishi zarur, ammo o'z-o'zidan yetarli shart emas. Rossiya tajribasida natijalar bosqichma-bosqich shakllangan qonunning o'zi bozor mexanizmlarini to'liq shakllantirish uchun yetarli emasligini ko'rsatadi, shu sababli amaliyotga tatbiq etish muhim amaliy bosqich hisoblanadi.

Tatbiq etish uch o'zaro bog'liq asosga tayanadi va aynan ularning yaxlitligi muvaffaqiyatni belgilaydi. Konseptual asos (islomiy moliyalashtirish inklyuzivligi tushunchasi) maqsadni aniqlaydi, metodologik asos (IMII indeksi) natijani o'lchaydi va hozirgi 0,028 darajadan 2030-yilga 0,15–0,20 gacha o'sishni kuzatadi,

13 O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 25-fevraldagi 75-son "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori"ni tasdiqlash to'g'risidagi buyrug'i. Adliya vazirligida 2026-yil 28-fevralda 3781-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8068466>.

14 Islamic Finance Development Report 2025 / ICD-LSEG. London, 2025 // URL: <https://www.lseg.com>.

15 Global Islamic Fintech Report 2025/26 / DinarStandard, Elipses. Dubai, 2026.

16 Islamic Financial Services Industry Stability Report 2025 / IFSB. Kuala Lumpur, 2025.

17 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish to'g'risidagi Farmoni, 30.03.2026 // URL: <https://lex.uz/docs/8103325>.



institutsional asos esa uch bosqichli model, kadrlar salohiyati va bank darajasidagi takomillashtirish orqali joriy etishni ta'minlaydi. Bu to'rt element alohida emas, balki yagona tizim sifatida ishlaganda samara beradi.

Shu bilan birga, tatbiq etish raqamli davr imkoniyatlaridan foydalanishi lozim. Yosh va texnologiyaga moyil aholi sharoitida O'zbekiston islomiy moliyani dastlabki kundanoq raqamli asosda qurish orqali oraliq bosqichlarni chetlab o'tishi mumkin, biroq buning uchun raqamli muhitga moslashtirilgan shariy boshqaruvni ham rivojlantirishi shart.

Tatbiq etish kuchayib borayotgan mintaqaviy raqobat sharoitida kechmoqda. Qozog'iston, Ozarbayjon va Rossiya bilan bir qatorda O'zbekiston ham Toshkent xalqaro moliya markazi orqali Fors ko'rfazi kapitalini jalb etishga intilmoqda, shu bois islohotlardagi tezkorlik va izchillik raqobatbardoshlik omiliga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-martdagi PF-48-son "Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8103316>.
2. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 25-fevraldagi 75-son "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori"ni tasdiqlash to'g'risidagi buyrug'i. Adliya vazirligida 2026-yil 28-fevralda 3781-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8068466>.
3. Amidžić G., Massara A., Mialou A. Assessing Countries' Financial Inclusion Standing: A New Composite Index. // IMF Working Paper. 2014. No. 14/36. Washington, D.C.: International Monetary Fund.
4. Asadov A. Empirical Analysis of Demand for Sukuk in Uzbekistan. // Economies. 2024. Vol. 12. No. 8. Article 220. DOI: 10.3390/economies12080220.
5. Beck T., Demirgüç-Kunt A., Martínez Pería M. S. Reaching out: Access to and use of banking services across countries. // Journal of Financial Economics. 2007. Vol. 85. No. 1. P. 234–266.
6. Demirgüç-Kunt A., Klapper L., Singer D., Ansar S. The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. Washington, D.C.: World Bank, 2022. DOI: 10.1596/978-1-4648-1897-4.
7. Imam P., Kpodar K. Islamic Banking: Good for Growth? // Economic Modelling. 2016. Vol. 59. P. 387–401.
8. Imamnazarov J. Landscaping Analysis of Islamic Finance Instruments in Uzbekistan. Tashkent: UNDP Uzbekistan, 2020.
9. Mohieldin M., Iqbal Z., Rostom A., Fu X. The Role of Islamic Finance in Enhancing Financial Inclusion in Organization of Islamic Cooperation (OIC) Countries. // Islamic Economic Studies. 2012. Vol. 20. No. 2. P. 55–120.
10. Naceur S. B., Barajas A., Massara A. Can Islamic Banking Increase Financial Inclusion? // IMF Working Paper. 2015. No. 15/31. Washington, D.C.: International Monetary Fund.
11. Nazarov N. N. Islamic Financing in Uzbekistan: Current Trends, Challenges and Prospects. // Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations. 2025. Vol. 1. No. 3. P. 195–199. DOI: 10.71337/inlibrary.uz.jmsi.102052.
12. Safarova N. The Effectiveness of Implementing Islamic Finance in the Activities of Uzbekistan's Commercial Banks. // American Journal of Economics and Business Management. 2025. Vol. 8. No. 10.
13. Sarma M. Index of Financial Inclusion: A Measure of Financial Sector Inclusiveness. // Berlin Working Papers on Money, Finance, Trade and Development. 2012. Working Paper No. 07/2012.
14. Fitch Ratings. Central Asia Islamic Finance Potential Catalysed by Reforms, GCC Interest. 11 May 2026. URL: <https://www.fitchratings.com/research/islamic-finance/central-asia-islamic-finance-potential-catalysed-by-reforms-gcc-interest-11-05-2026>.
15. DinarStandard, Elipses. Global Islamic Fintech Report 2025/26. Dubai: DinarStandard, 2026.
16. ICD–LSEG. Islamic Finance Development Report 2025: 50 Years of Exponential Growth. London: London Stock Exchange Group, 2025.
17. Islamic Financial Services Board. Islamic Financial Services Industry Stability Report 2025. Kuala Lumpur: IFSB, 2025.
18. Baker McKenzie. Kazakhstan: New Banking Law Signals Major Reform. 12 January 2026. URL: <https://www.bakermckenzie.com/en/insight/publications/2026/01/kazakhstan-new-banking-law-signals-major-reform>.
19. Realnoe Vremya. Experiment on Implementing Islamic Banking to Be Extended for Three Years. 19 May 2025. URL: <https://realnoevremya.com/articles/8807-experiment-on-implementing-islamic-banking-to-be-extended-for-3-years>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>